

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 28-sentabr, № 202 (9373) Dushanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON TURIZM SOHASI XODIMLARIGA

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni 27-sentyabr – Butunjahon turizm kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi kunda turizm mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan, minglab yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan istiqbolli tarmoqqa aylanib bormoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosati, viza tartibining soddalashtirilgani, transport va mehmonxona infratuzilmasining kengaytirilgani, tadbirkorlar uchun ko‘plab soliq hamda bojxona imtiyozlari joriy qilingani soha rivojiga yangi shiddat bermoqda.

Buning tasdig‘ini 2025-yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2016-yilga nisbatan salkam 6 barobar oshib, qariyb 12 million nafarga yetgani, turizm xizmatlari eksporti 11 karra ko‘payib, 4 milliard 800 million AQSh dollarini tashkil etgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizning global turizm siyosatidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, O‘zbekistonning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2027-yil Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e’lon qilingani, BMT Turizm tashkiloti respublikamizni dunyodagi eng tez o‘sayotgan beshta sayyohlik yo‘nalishiga kiritganini ta’kidlash lozim.

Albatta, bunday yutuqlar zamirida yurtimizdagi minglab turoperator va turagentlar, mehmonxona va oilaviy mehmon uylari xodimlari, gid va ekskursovodlar, restoratorlar, transport va servis kompaniyalari vakillari, hunarmandlar, madaniyat namoyandalari, muzey xodimlari, ustoz-murabbiylarning mashaqqatli mehnati mujassamdir.

Fursatdan foydalanib, ushbu yo‘nalishlarda sidqidildan xizmat qilayotgan barcha soha xodimlariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yangi O‘zbekistonimizning o‘ziga xos tashrif qog‘ozi bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy majmualari, Zamonaviy san’at markazi kabi ko‘plab maskanlar butun xalqimiz qatori xorijiy sayyohlarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Biz bu boradagi ishlarimizni izchil davom ettirib, go‘zal diyorimizni jahondagi zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi yanada rivojlangan eng mashhur turizm markazlaridan biriga aylantirishga qaror qilganmiz. Shu maqsadda Xivada o‘zida tarix va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan xalqaro turistik shaharcha, kongress markazi va tarixiy-etnografik bog‘ barpo etish, Ichan qal’ani raqamli texnologiyalar asosida “aqlli” muzey-majmuaga aylantirishni rejalashtirganmiz.

Samarqandda esa noyob eksponatlar jamlangan Ipak yo‘li muzeyi tashkil etiladi. Qoraqalpog‘istonda arxeologik yodgorliklar bo‘ylab yangi turistik yo‘nalishlar ochiladi. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida “G‘ilon”, Namangan viloyatining Pop tumanida “Arashan” kabi yangi majmualar tashkil etiladi.

Sohada zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yagona milliy turizm platformasini ishga tushirish, sayyohlik xizmatlarini bitta tizimga integratsiya qilish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, kadrlar malakasini muntazam oshirib borish ham ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Gastronomik, ekologik, ziyorat, tibbiyot, tog‘ va sarguzasht, ishbilarmonlik, etno va qishloq turizmi kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarni jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Ana shunday dolzarb vazifalarni amalga oshirish orqali biz 2030-yilga borib xorijiy sayyohlar sonini yiliga 20 million nafarga, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 7 foizga yetkazish, xizmatlar eksportini 8 milliard dollardan oshirish, yuqori toifadagi mehmonxonalar sonini esa ikki karra ko‘paytirishni maqsad qilganmiz.

Bunday ulkan marralarni egallashda, avvalo, o‘z hayotini turizm sohasi bilan bog‘lagan, yurtimizni, uning qadimiy tarixi va madaniyatini dunyoga targ‘ib etishni o‘zining professional burchi deb biladigan sizlar kabi tashabbuskor va tashkilotchi insonlarga tayanamiz.

Hech shubhasiz, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xodimlarning fidokorona mehnatini munosib rag‘batlantirish bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Shu munosabat bilan **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan turizm xodimi” faxriy unvonini** ta’sis etsak, o‘ylaymanki, bu taklifni barchangiz qo‘llab-quvvatlaysiz.

Sizlarni Butunjahon turizm kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, sharafli faoliyatingizda omad va zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SHAXMAT BO‘YICHA O‘ZBEKISTON TERMA JAMOASI A’ZOLARIGA

Qadrli o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli ustoz va murabbiylar!

Dunyo shaxmat osmonida yorqin yulduz bo‘lib porlagan siz, aziz farzandlarimni 46-Jahon shaxmat olimpiadasida erishgan tarixiy g‘alabangiz bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Ikki karra olimpiada chempioni degan yuksak sharafli unvon, buyuk zafar barchamizga, ko‘p millatli xalqimizga muborak bo‘lsin!

Mana shu g‘oyat hayajonli onlarda 200 dan ziyod mamlakatdan 2 mingga yaqin eng kuchli va mashhur grossmeysterlar, nomdor jamoalar ishtirok etgan murosasiz bellashuvlarda ko‘rsatgan aql-zakovatingiz, yuksak irodangiz, mahorat va jasoratingiz uchun butun el-yurtimiz, dunyo shaxmat jamoatchiligi sizlarga tasannolar aytmoqda.

Sizlar – Yangi O‘zbekiston qahramonlari, jahon shaxmat olamida yangi tarix yaratgan oltin avlodsiz. Butun xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi, g‘ururlanadi.

Ushbu nufuzli musobaqalarda sizlar tengsiz aql va tafakkur egalari bo‘lgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar ekaningizni amalda namoyon etdingiz.

Sizlar amaldagi Olimpiada chempioni – Hindiston jamoasini mag‘lub etdingiz. Qadimiy shaxmat maktabi va ko‘plab grossmeysterlarga ega bo‘lgan Xitoy jamoasi ustidan tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritdingiz. Dunyo reytingida birinchi o‘rinni egallab kelayotgan, olti karra Olimpiada chempioni bo‘lgan AQSh jamoasidan ham ustun keldingiz.

Nodirbek Abdusattorov barcha o‘yinlar davomida mag‘lubiyat nima ekanini bilmasdan, chinakam jamoa lideri ekanini isbotlab, birinchi taxtada oltin medal sohibiga aylandi.

Nodirbek Yoqubboyev esa Turkiya, Hindiston, Xitoy va AQSh vakillariga qarshi murosasiz bahslarda chinakam iroda va matonat ko‘rsatib, jamoamiz uchun hal qiluvchi g‘alabalarni ta’minlaganini alohida ta’kidlab aytmoqchiman.

Ayniqsa, Yoqubboyevning hindistonlik Nihal Saringa qarshi bellashuvi haqiqiy dramatik jang bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston vakilining eng qiyin vaziyatda nihoyatda topqirlik bilan qo‘llagan taktik yurishlarini ko‘rib, dunyo shaxmat muxlislari hayratdan qotib qoldi.

Yana bir mard o‘g‘lonimiz, Javohir Sindorov chempionlarga xos o‘yin ko‘rsatib, umumiy g‘alabaga katta hissa qo‘shdi.

Bunday yirik xalqaro musobaqada birinchi marta ishtirok etgan Muhiddin Madaminov o‘g‘limizning kuchli raqiblariga kutilmagan zarbalar bergani va birorta ham mag‘lubiyatga uchramagani yuksak bahoga munosibdir.

Shamsiddin Vohidov Hindiston, Turkiya va Vengriya vakillariga qarshi murosasiz o‘yinlarda o‘zini yo‘qotmasdan, muhim ochkolarni olishga erishgani ham muxlislar xotirasida saqlanib qoladi.

Bir so‘z bilan aytganda, terma jamoamiz a’zolarining har biri o‘ziga ishonib, faqat oldinga qarab borganini ko‘rib, Yangi O‘zbekistonda qanday buyuk shaxmat maktabi, shaxmatchilar avlodi shakllanganiga butun dunyo tan berdi.

Musobaqalarda ikkinchi tarkib bilan ishtirok etgan jamoamiz qayd etgan natija ham bizni quvontiradi.

Jahongir Vohidov o‘g‘lim kuchli iroda ko‘rsatib, ushbu jamoamizni sovrinli o‘rinlar sari boshladi. Ispaniya, Angliya va Niderlandiya kabi davlatlar vakillari ustidan qozonilgan ishonchli g‘alabalar unutilmas tarixga aylandi.

Ayollar jamoamiz ham keskin kurashlarda haqiqiy matonat namunasini ko‘rsatdi. Ular AQSh jamoasi bilan tengma-teng bahs olib borganlari, 11 ta turda 7 ta yutuqqa erishib, o‘n uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritgani ham muhim natijadir.

Samarqand olimpiadasida parashaxmatchilarimiz ham ulkan jasorat ko‘rsatib, bunday o‘yinlar tarixida birinchi marta bronza medalini qo‘lga kiritishdi. Selbi qizim shaxsiy hisobda kumush, Abdulaziz o‘g‘lim bronza medaliga sazovor bo‘lgani, Ahadxon o‘g‘lim umuman mag‘lub bo‘lmagani meni juda xursand qildi.

El-yurtimiz barcha shaxmatchilarimiz timsolida kuchli bilim va iroda sohiblarini, katta-katta marralarni zabt etishga qodir bo‘lgan Yangi O‘zbekiston yoshlarini ko‘radi.

Hech shubhasiz, bu yuksak g‘alaba barchamizga yangi kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom bag‘ishlaydi, yosh avlodimiz uchun chinakam ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda shaxmat rivojiga berilayotgan doimiy e’tibor, yo‘lga qo‘yilgan samarali tizim va qulay sharoitlar sizlar erishgan natijalarni ta’minlashda muhim omil bo‘ldi. Yaqinda bu borada yana bir Prezident qarorini qabul qildik. Ushbu hujjat yaqin kelajakda yanada ulkan natijalar uchun, albatta, mustahkam zamin yaratadi.

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi FIDE tomonidan 2026-yilda “Eng yaxshi federatsiya” nominatsiyasida g‘olib deb topilgani, tajribali murabbiy, grossmeyster Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova FIDEning Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylanganini O‘zbekistonning shaxmat mamlakati sifatida obro‘-e’tibori oshib borayotganining yana bir dalili sifatida qabul qilamiz.

Aziz farzandlarim!

Ikki hafta davomida azim Samarqand shahri bamisoli jahon shaxmatining poytaxtiga aylandi. Bu yerda bo‘lib o‘tgan nufuzli musobaqalar, qatnashchi davlatlar va shaxmatchilar soniga ko‘ra rekord natijalar bilan tarixga kirganini alohida ta’kidlash lozim.

Barchamizning umumiy g‘alabamiz uch ming yillik boy tarix va madaniyat ovozi kelib turgan, XIV-XV asrlarda Ikkinchi Renessans markazlaridan biri bo‘lgan bu buyuk shaharda qo‘lga kiritilgani uning qadr-qimmatini yanada oshirmoqda.

Shu yil noyabr oyida bizni yana bir katta shaxmat bayrami kutib turibdi. Jahon toji uchun bo‘ladigan tarixiy bellashuvda shaxmatimiz faxri Javohir Sindorovdan barchamiz ulkan zafarlarni kutib qolamiz. Sen bunga albatta qodirsan, Javohir bolam!

Fursatdan foydalanib, 46-Jahon shaxmat olimpiadasida Vatanimiz shon-shuhratini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan o‘g‘il-qizlarimizga, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga, terma jamoamizning barcha a’zolariga chin dildan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ushbu musobaqalarni yuksak darajada tashkil etgan, olimpiada ishtirokchilariga xalqimizga xos mehmondo‘stlik, hurmat va ehtirom ko‘rsatgan Samarqand viloyati ahliga va mahalliy hokimlik vakillariga, barcha tashkilotchilarga katta rahmat aytamiz.

Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, kelgusi faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.


Bizga mana shunday buyuk shukuh, ulug‘ zafarlarni taqdim etgan shaxmatchi farzandlarimiz doimo sog‘-omon bo‘lsin!

Sizlarga hamisha porloq g‘alabalar yor bo‘lsin, aziz bolalarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAYYOHLIK – IQTISODIYOTIMIZDA MUHIM O‘RIN TUTUVCHI ISTIQBOLLI TARMOQ

Fakt va raqamlar



BMT Turizm tashkiloti O‘zbekistonni dunyodagi eng tez o‘sayotgan 5 ta sayyohlik yo‘nalishiga kiritdi.

O‘tgan yili yurtimizga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2016-yildagiga nisbatan salkam **6 barobar** oshib, qariyb **12 million** nafarga yetdi.

Turizm xizmatlari eksporti **11 karra** ko‘payib, **4 mlrd. 800 mln.** AQSh dollarini tashkil etmoqda.



2030-yilga borib

– xorijiy sayyohlar sonini yiliga **20 mln.** nafarga;

– turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini **7 foiz**ga yetkazish;


– xizmatlar eksportini **8 mlrd.** dollardan oshirish;

– yuqori toifadagi mehmonxonalar sonini **2 karra** ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.

O‘ZBEKISTON YOSHLARI JAHON SHAXMAT OLAMIDA YANGI TARIX YARATDI

Samarqand shahri sentyabr oyida shaxmat festivaliga mezbonlik qildi. Gap shundaki, bu yerda “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida uchinchi parashaxmat, 46-Butunjahon shaxmat olimpiadalari va Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE)ning 97-kongressi bilan bog‘liq yirik tadbirlar bo‘lib o‘tdi.

Ikki hafta davomida butun dunyo shaxmat ixlosmandlari e’tiborini Samarqandga qaratgan mazkur Olimpiada musobaqalari, uning doirasidagi tadbirlar jahon shaxmati rivojiga beqiyos hissa qo‘shish bilan birga yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi naqadar yuksalayotganligini yana bir bor isbotladi.



G‘alaba muborak!





STANDINGS

AFTER ROUND 11

NO.	TEAM	TB3	TB2	TB1
01	UZBEKISTAN	32,5	455,5	20
02	INDIA	28,5	405,5	18
03	GERMANY	28,5	386,5	18
04	USA	29	391,5	17
05	AZERBAIJAN	28,5	364,5	17
06	ARMENIA	27	339,5	17
07	HUNGARY	24,5	320,5	17
08	CHINA	28	374,5	16
09	FRANCE	28,5	366,5	16
10	SPAIN	28,5	354,5	16

TB1: Match ochkolari – g‘alaba uchun 2 ochko, durang uchun 1 ochko, mag‘lubiyat uchun 0 ochko.
TB2: Eng past natija hisobga olinmagan Olimpiada Sonneborn–Berger koeffitsiyenti (Channel).
TB3: O‘yin ochkolari (game points).

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining 11-tur o‘yinlari nufuzli musobaqaning g‘olib va sovrindorlari nomini aniqlab berdi. O‘zbekiston Ukraina bilan uchrashuv tugashidan oldin chempionlikni matematik jihatdan kafolatladi. Chunki Hindiston so‘nggi turda Vengriya bilan (2:2) durang o‘ynadi. O‘zbekiston 10 turdan keyin Hindistondan bir ochko oldinda edi: 18 ga 17.


Bu yo‘l oson bo‘lmadi. O‘zbekiston musobaqaning dastlabki 7 turining barchasida g‘alaba qozondi. Hal qiluvchi bahslarda Hindiston ustidan 2.5:1.5, Xitoy ustidan 3:1 hisobida g‘alaba qozonildi. 8-turda Germaniya g‘alabali seriyamizga to‘siq qo‘ygandek bo‘ldi, ammo jamoamiz darhol o‘zini tikladi: 9-turda turnirning birinchi raqamli saralangan AQSh jamoasini mag‘lub etdi, 10-turda esa Armaniston vakillari 3.5:0.5 hisobida taslim qilindi.

➡ 2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 28-sentabr

O‘ZBEKISTON YOSHLARI JAHON SHAXMAT OLAMIDA YANGI TARIX YARATDI



1 Ukrainaga qarshi so‘nggi g‘alaba esa oltin medal masalasini hal etdi.

Ushbu musobaqada O‘zbekiston-1 jamoasida Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov, Muhiddin Madaminovdan iborat mahoratli shaxmatchilarimiz bahs olib borib Ukraina shaxmatchilarini ham 2.5:1.5 hisobida mag‘lub etdi va haqli ravishda 20 ochko bilan 2026-yilgi shaxmat Olimpiadasining g‘olibligini qo‘lga kiritdi!

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida Hindiston jamoasi so‘nggi turda Vengriya bilan 2:2 hisobida murosa yo‘lini tanlashi natijasida 18 ochko bilan kumush medallarga sazovor bo‘ldi.

Germaniya jamoasi esa Niderlandiyani mag‘lub etib, 18 ochko bilan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar evaziga 3-o‘rinni egalladi.

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining ayollar musobaqasida Xitoy jamoasi so‘nggi turda Vyetnamni mag‘lub etdi va 20 ochko bilan g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. 2-o‘rin Polsha jamoasi bilan durangga erishgan Qozog‘iston jamoasiga, 3-o‘rin esa Hindiston jamoasi shaxmatchi qizlariga nasib etdi. O‘zbekiston ayollar terma jamoasi esa Olimpiadani 13-o‘rinda yakunladi.

Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” majmuasida Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE)ning 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining tantanali yopilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbir FIDEning turli kategoriyalari bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash bilan boshlandi. Jamoalar musobaqalardagi ishtiroki, reyting o‘rni va o‘ziga xos muvaffaqiyatlari uchun rag‘batlantirildi.

Jumladan, mamlakatimiz ayollar ikkinchi terma jamoasi a’zolari “V” kategoriyasida bronza medallariga sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston-1 erkaklar terma jamoamiz a’zosi Nodirbek Yoqubboyev 3-taxtada kumush medal bilan, Javohir Sindorov 2-taxtada bronza medal bilan, Nodirbek Abdusattorov esa 1-taxtada oltin medal bilan taqdirlandi.

Shuningdek, olimpiadaning “Eng yaxshi ayol shaxmatchi”, “Eng yaxshi erkak shaxmatchi” nominatsiyalari g‘oliblariga FIDEning maxsus mukofotlari topshirildi. Hamyurtimiz Javohir Sindorov “Eng yaxshi erkak shaxmatchi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

So‘ngra sahnaga Xalqaro shaxmat federatsiyasining yangi saylangan prezidenti Timur Turlov taklif etildi va u 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi ayollar musobaqalari g‘oliblariga chempionlik kubogi hamda medallarini tantanali topshirdi.

Ayollar musobaqalarida uchinchi o‘rin va bronza medal Hindiston jamoasiga, ikkinchi o‘rin va kumush medal Qozog‘iston vakillariga, birinchi o‘rin va oltin medal hamda “Vera Menchik” kubogi Xitoy davlati shaxmatchilariga topshirildi. Chempion jamoa sharafiga Xitoy Xalq Respublikasi madhiyasi yangradi.

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi ochiq turniri (erkaklar) g‘oliblarini taqdirlash uchun sahnaga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov taklif etildi.

Olimpiada bronza medallari Germaniya jamoasiga, kumush medallar hindistonlik shaxmatchilarga topshirildi.

Va nihoyat, FIDE 46-shaxmat olimpiadasi oltin medallari va Hamilton-Rassel kubogi O‘zbekiston jamoasi a’zolariga tantanali topshirildi. Chempion o‘g‘lonlarimiz sharafiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

Dunyo e’tiborini deyarli ikki hafta mobaynida o‘ziga qaratgan Samarqand shahrida Xalqaro shaxmat federatsiyasi tarixida ilk bor shaxmat paralimpiadasi Butunjahon shaxmat olimpiadasi bilan bir vaqtda va bir joyda o‘tkazildi hamda unda 36 davlatdan 41 jamoa, 164 nafar yetakchi shaxmatchi qatnashdi. E’tiborlisi, mamlakatimiz vakillari chinakam matonat va iroda ko‘rsatib, ilk bor shaxmat paralimpiadasi bronza medallarini qo‘lga kiritdi va uchinchi o‘rinni egalladi.

Samarqandda o‘tgan shaxmat festivali doirasida 97-FIDE kongressi hamda Bosh assambleya yig‘ilishi va saylov tadbirlari ham bo‘lib o‘tdi. FIDE kongressi Bosh assambleyasida tashkilot prezidentligi uchun o‘tgan saylovda qozog‘istonlik tadbirkor Timur Turlov FIDE prezidenti etib saylandi. U mazkur tashkilot tarixidagi eng yosh prezidentga aylandi. 38 yoshli T. Turlov qozog‘istonlik tadbirkor, “Freedom Holding Corp.” asoschisi va rahbari. U 2023-yildan beri Qozog‘iston shaxmat federatsiyasiga ham rahbarlik qilib keladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, barcha tadbir – ishtirokchilar va jamoalar soni bo‘yicha FIDE tarixida eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan Samarqand shaxmat bayrami o‘ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida jami 394 ta – erkaklar ochiq turnirida 205, ayollar musobaqasida 189 jamoa qatnashdi va FIDE tarixidagi eng yirik shaxmat olimpiadasi sifatida qayd etildi. Ishtirokchi jamoalar 11 turda o‘z kuch va salohiyatlarini namoyon qildi.

O‘zbekiston-1 jamoasi tarkibidagi to‘rt nafar shaxmatchi 2022-yilda Chennay olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritgan jamoada ham o‘ynagan.

O‘zbekiston terma jamoasining so‘nggi uch olimpiadadagi natijasi esa alohida e’tiborga loyiq – 2022-yili Chennay olimpiadasida oltin, 2024-yili Budapeshtda bronza va nihoyat 2026-yilgi Samarqand olimpiadasida yana oltin medallar qo‘lga kiritildi. Demak, O‘zbekiston ketma-ket uchta shaxmat olimpiadasini medalsiz tark etmadi va to‘rt yil ichida ikkinchi bor “Open” bo‘limida jahonning eng kuchli terma jamoasi bo‘ldi. Eng ahamiyatli jihati, bu safargi chempionlik o‘z uyimizda, Samarqand shahrida qo‘lga kiritildi.

2022-yilda O‘zbekistonning olimpiadadagi oltin medalini tasodif yoki bir martalik muvaffaqiyat deb baholaganlar ham bor edi. Ammo 2026-yilda jamoamiz butun turnir davomida kuchli va ishonchli o‘yin namoyish etib yana shohsupaga ko‘tarildi. Bu safar yigitlarimiz faqat chempion bo‘libgina qolmay 2022-yildagi oltin tasodif bo‘lmaganini va O‘zbekiston bugun dunyoning eng kuchli shaxmat terma jamoasi ekanini amalda isbotladi.

Yanada e’tiborlisi, olimpiadada alohida taxtalarda Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Asrorjon Omonov yetakchilar qatoridan o‘rin egalladi.

Bundan tashqari, Abdumalik Abdusalimov, Muhammadzohid Suyarov, Afruza Hamdamova, Umida Omonova, Nilufar Imomqo‘ziyeva, Guldona Karimovaning o‘z taxtalarida kuchli o‘nlikdan o‘rin egallashi yangi g‘alabalar, yangi chempionlar avlodi yetishib kelayotganligini ko‘rsatdi.

Marosimda Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) bayrog‘i Birlashgan Arab Amirliklari – 47-Butunjahon shaxmat olimpiadasining mezbon davlati vakillariga topshirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zolariga tabrigida aytilganidek, “Ikki karra olimpiada chempioni degan yuksak sharafli unvon, buyuk zafar barchamizga, ko‘p millatli xalqimizga muborak bo‘lsin!”

Abdulaziz YO‘LDOSHEV (“Xalq so‘zi”).



Muhammad AMIN, Alisher ISROILOV (O‘zA) olgan suratlar.

SUV TEJASH – UMUMMILLIY MARRA

Suv – ulug‘ va aziz ne’mat. U nafaqat hayot manbai, balki oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi va butun iqtisodiyot taraqqiyotini ta’minlaydigan bebaho resurs. Shu bois obihayotning har bir qatrasini qadrlash, undan oqilona va tejab foydalanish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi – ayniqsa, suv masalasida o‘ziga xos murakkab sharoitga ega O‘zbekistonda! Chunki mamlakatimizda foydalanadigan suv resurslarining 80 – 85 foizi uning hududidan tashqarida shakllanadi. Qolaversa, 4,3 million gektardan ziyod sug‘oriladigan ekin maydonlarining 60 foizdan ortig‘i obihayot nasoslar yordamida yetkazib beriladiki, bu katta miqdorda elektr energiyasi, mablag‘ va mehnat talab etadi.

Nuqtai nazar

So‘nggi yillarda suv xo‘jaligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sohada boshqarish tizimini takomillashtirish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va resurs tejovchi texnologiyalar qamrovini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik hamda o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning mustahkamlanishi transchegaraviy suv manbalaridan oqilona va kelishilgan holda foydalanish bo‘yicha muloqotlarni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Suv masalalari davlat rahbarlari darajasida muntazam muhokama qilinib, mintaqada umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sohaning mustahkam huquqiy va strategik asoslari ham yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi, 2025-yilda esa Suv kodeksi qabul qilinib, sohadagi munosabatlar zamonaviy talablar asosida tartibga solindi.

Prezidentimiz davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, to‘rtinchi milliy dasturning suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratilishini alohida ta’kidladi. Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Bu suv xo‘jaligi tizimi uchun yangi mas’uliyat, yangi mezon va yangi ish uslubini talab etadi.

Bugun tizimdagi ishlar ana shu tartib-taomillar asosida olib borilyapti. Bunga Qoraqalpog‘istondagi “Eski Keneges” kanalidagi o‘zgarishlar misol bo‘la oladi.

1936-yilda qurilgan bu kanalning uzunligi 36 kilometr bo‘lib, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlaridagi 6400 gektar ekin maydonlarini suv bilan ta’minlaydi. Kanalning o‘zani yillar davomida loy va qum bilan to‘lgan, beton qoplamalari eskirgan edi. Buning oqibatida shu kanalning o‘zida yiliga o‘rtacha 3,2 mln. kubometr suv yo‘qotilardi. Endilikda Taxiatosh tumanidan o‘tuvchi “Eski Keneges” kanali bosqichma-bosqich betonlashtirilmoqda. Joriy yilda rekonstruksiyaning ikkinchi bosqichi doirasida uning 15,7 kilometr qismi betonlandi. Bu ishlarga Davlat byudjetidan 32 mlrd. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada kanalning betonlashtirilgan qismi Mustaqillik bayrami arafasida tantanali tarzda foydalanishga topshirildi.

Shu o‘rinda aytish joizki, uning nomi “Eski Keneges” bo‘lsa-da, kanal butunlay zamonaviy infratuzilmaga aylandi: suv uning oxiriga 3-4 soatda yetib bormoqda, nasoslarga ehtiyoj kamayib, obihayot yo‘qotilishining oldi olinib, elektr energiyasi tejalmoqda.

Hududlarga chiqqanimda bir holat meni doimo ta’sirlantiradi. Yillar davomida suv kutgan qishloq yoki mahallaga suv kirib borsa, odamlarning kayfiyati o‘zgaradi. Dehqon endi kelgusi hosili haqida o‘ylaydi, xonadon egasi tomorqasiga nima ekishni rejalashtiradi. Istiqlol ayyomi arafasida Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanidagi rekonstruksiya qilingan “Oqtepa” kanali foydalanishga topshirilganida bu holga yana bir karra guvoh bo‘ldik.

– “Oqtepa” kanalida suv yetib kelishi qiyinlashgan edi. Bugun betonlangan kanaldan suv ravon oqib, ekin yerlarimizni o‘z vaqtida sug‘oryapmiz. Bu g‘amxo‘rlik va suv xo‘jaligi sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor uchun, avvalo, Prezidentimizga, suvchilarimizga va qurilishda mehnat qilgan barchaga minnatdorlik bildiraman, – deydi bulung‘urlik Safarboy Aliboyev.



Ta’kidlash kerakki, “Eski Keneges” va “Oqtepa” kanallari yil boshidan buyon foydalanishga topshirilgan yuzlab suv xo‘jaligi inshootlaridan ikkitasi xolos. Gap shundaki, 2026-yilda 1 200 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektini qurish va rekonstruksiya qilishga Davlat byudjetidan 4,1 trln. so‘m mablag‘ ajratildi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 4,9 barobar ko‘pdir. Taqqoslash uchun keltiramiz, 2017-yilda irrigatsiya va melioratsiya ishlariga respublika byudjetidan 842 mlrd. so‘m, 2020-yilda esa 1,7 trln. so‘m yo‘naltirilgan edi.

Mamlakatimizda qariyb 174 ming kilometr sug‘orish tarmog‘idan foydalaniladi. Bu ulkan infratuzilmani modernizatsiya qilish, suv yo‘qotishlarini kamaytirish va tarmoqlar samaradorligini oshirish suv xavfsizligini ta’minlashning muhim shartidir. Ilgari, asosan, katta kanallar va yirik sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirar edik. Mahallalar hududidan o‘tgan ariq va sug‘orish tarmoqlariga yetarlicha mablag‘ ajratilmasdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan mahallalarda aholi tomorqalarini suv bilan ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida alohida ta’kidlanganidek, 867 ta “og‘ir” mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug‘orish uchun ilk bor suv yetkazib berildi. Bu raqam ortida katta ijtimoiy mazmun bor. Chunki suvsiz turgan tomorqa – foydalanilmayotgan imkoniyat. Suv kelishi bilan yerga urug‘ tushadi, ko‘chat ekiladi, issiqxona quriladi, oila o‘z ehtiyoji uchun mahsulot yetishtirib, ortiqchasidan daromad olish imkoniga ega bo‘ladi.

Misol keltiradigan bo‘lsak, Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Eskiarab va O‘zbekiston tumanidagi Sho‘rqishloq mahallalarida sug‘orish tik quduqlari ishga tushirilib, 400 dan ortiq xonadonlar tomorqasining suv ta’minoti yaxshilandi. Yoki ushbu dastur doirasida Surxondaryo viloyatida suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan 77 ta mahallada 24 mingdan ziyod xonadonlar ahli o‘z tomorqalarida turli ekinlar yetishtira boshladi. Yeri bor, mehnat qilishga tayyor, ammo suvi yo‘q oilaga suv yetkazib berilsa, qolganini u o‘z mehnati bilan yaratadi. Shu ma’noda, suv – faqat tabiiy resurs emas, balki bandlik, daromad va farovonlik omili ekanligi amalda o‘z tasdig‘ini topdi.

> ***“2017-yilda mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalar 28 ming gektar maydonda qo‘llanilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib ularning qamrovi 2,6 mln. gektarga, ya’ni sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 60 foiziga yetkazildi. 2026-yil boshidan buyon 640 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. Bunday texnologiyalardan keng foydalanish – eng ulug‘ ne’mat bo‘lgan suvning isrof bo‘lishini kamaytirishga qaratilgan xayrli va savobli ish.”***

Hududlar aholisi odatda “Ochiq byudjet” portali orqali yo‘l, elektr ta’minoti yoki boshqa ijtimoiy masalalar bo‘yicha tashabbuslarni ilgari suradi. Suvning qadriga yetgan hududlarda sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish bo‘yicha tashabbuslar ham tobora ko‘paymoqda. Natijada “Tashabbusli byudjet” mablag‘lari hisobidan so‘nggi yillarda o‘nlab qishloq va mahallalarda suv ta’minoti yaxshilandi. Xususan, Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi Shavgon mahallasidan oqib o‘tuvchi ariq, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi “Davr” kanali, Ko‘kdala tumanidagi “Umakay”, “Chiyal-2”, “Arabbandi” kanallari “Tashabbusli byudjet” doirasida betonlashtirildi.

Yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlari misolida xalqimiz sohadagi islohotlar samarasini bevosita his etmoqda. Odamlarda yangicha tafakkur, suvga o‘zgacha munosabat shakllanmoqda.

Mamlakatimizning suv xo‘jaligi sohasida erishayotgan yutuqlari dunyo miqyosida ham e’tirof etilmoqda. Xususan, joriy yil iyulda Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha yuqori darajadagi siyosiy forumida O‘zbekistonning suv resurslarini boshqarish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish borasidagi natijalari, jumladan, mamlakatimizda suv stressi ko‘rsatkichi 2017-yildagi 169 foizdan 2022-yilda 122 foizga pasaygani quvonch bilan urg‘ulandi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlashni istardim: xalqaro minbarda e’tirof etilayotgan har bir natijaning ortida, avvalo, Prezidentimizning sohaga qaratayotgan e’tibori, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar, yurtimizning turli hududlarida mehnat qilayotgan minglab suvchilar, muhandislar, olimlar, quruvchilar va fermerlarning mehnati turibdi.

Suvni tejashni faqat Suv xo‘jaligi vazirligi, fermer yoki suvchining vazifasi deb tushunish to‘g‘ri emas. Sanoat korxonalari, tadbirkorlar, mahallalar va xonadonlar ham suvga tejamkor munosabatni kundalik hayot va ishlab chiqarish madaniyatiga aylantirishi zarur.

Sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish, ariqlarni tozalash, suv isrofgarchiligining oldini olish va obihayotdan tejab foydalanish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizga bu yil Yaratganning o‘zi madad berdi.

Yil boshida suv zaxiralarimiz oldingi yildagiga nisbatan 6,5 mlrd. kubometrga kam edi. Qish va bahorda yog‘ingarchilik mo‘l bo‘lib, daryolar, kanallar va suv omborlarimiz obihayotga to‘ldi. Buning hisobiga 2026-yil yozgi sug‘orish mavsumi barqaror o‘tdi. Respublika bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlariga 33 mlrd. kubometr suv resurslari yetkazib berildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 9,5 mlrd. kubometr suv tejaldi. Yil yakunigacha 11 mlrd. kubometr, 2027-yilda 12 mlrd. kubometr, 2028-yilda 13 mlrd. kubometr suvni tejash maqsadimiz bor.

Tomchilatib, yomg‘irlatib va diskret sug‘orish, yerlarni lazerli tekislash kabi texnologiyalar nafaqat suvni tejashga, balki har gektarda suvdan foydalanish samaradorligini va hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

2017-yilda mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalar 28 ming gektar maydonda qo‘llanilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib ularning qamrovi 2,6 mln. gektarga, ya’ni sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 60 foiziga yetkazildi. 2026-yil boshidan buyon 640 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. Bunday texnologiyalardan keng foydalanish – eng ulug‘ ne’mat bo‘lgan suvning isrof bo‘lishini kamaytirishga qaratilgan xayrli va savobli ish.

Suvchilik mashaqqatli kasb. Chunki obihayot taqsimoti vaqt tanlamaydi. Suvchi yozning jaziramasida ham, qishning sovug‘ida ham kanal va inshootlar boshida bo‘ladi. Xalqning duosi va roziligi suvchilarga juda katta ma’naviy kuch beradi. Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan soha vakillaridan to‘rt nafari davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangani barchamizni quvontirdi va suvchilarni yangi zafarlarga ruhlantirdi.

Suv bor joyda hayot, suv qadrlangan joyda taraqqiyot bor. Kelgusi besh yil suv xo‘jaligi uchun katta o‘zgarishlar davri bo‘ladi. To‘rtinchi milliy dasturdan kelib chiqib oldimizda suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 100 foizga yetkazish, irrigatsiya tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni keskin kamaytirish, suv hisobini raqamlashtirish, nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish kabi mas’uliyatli vazifalar turibdi. Ishonamizki, Prezidentimizning yuksak e’tibori va ishonchidan ruhlangan suvchilarimiz sidqidildan mehnat qilib, bu vazifalarni munosib ado etadi.

Shavkat HAMROYEV,
O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator.

Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazining Olmaota shahridagi qarorgohida a’zo davlatlar (Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston) milliy koordinatorlari kengashi yig‘ilishida narkotahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2027-yil uchun “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN ISHONCHLI HAMKOR

Ayni paytda dunyo iqtisodiyoti va geosiyosati beqaror davrni boshdan kechirmoqda. Ayrim davlatlar o‘rtasida kuchayayotgan qarama-qarshilik hamda xavf-xatarlar an’anaviy munosabatlar zanjirlariga putur yetkazib, global bozorda narxlar tebranishini keltirib chiqarmoqda. Bunday murakkab geosiyosiy nomutanosiblik sharoitida ko‘plab mamlakatlar inflyatsiya, kapitalning chiqib ketishi va retsessiya bilan to‘qnash kelayotir.

Tahlil

Asosiysi, xalqaro moliya institutlari (XVJ, Jahon banki, OTB) va reyting agentliklari tomonidan qayd etilayotganidek, O‘zbekiston global beqarorlik ummonida xorijiy kapital hamda barqaror rivojlanish uchun “tinch va ishonchli mamlakat” sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz iqtisodiyoti so‘nggi o‘n yilda kuchli va barqaror o‘sishni namoyish etdi. O‘n yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti hajmi uch barobar ko‘payib, yalpi ichki mahsulot qariyb 60 mlrd. dollardan 180 mlrd. dollarga yetdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ham sezilarli darajada oshdi. Bu O‘zbekistonni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga olib chiqdi.

Nazariyaga ko‘ra iqtisodiyotning jadal o‘sishi uchun yalpi asosiy kapitalga investitsiyalar YAIMning kamida 30 – 35 foizini tashkil etishi lozim. O‘zbekistonimizda so‘nggi yillarda kapital qo‘yilmalarning YAIMdagi ulushi 30 – 33 foizdan tushmayapti. Bu Janubiy Koreya hamda Xitoyning “iqtisodiy mo‘jizasi” davridagi ko‘rsatkichlarga tengdir.

Biznesni “soya”dan chiqarishda yangicha yondashuv

E’tibor bering, ilgari o‘sish, asosan, Davlat byudjeti va tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2017 – 2026-yillarda xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi keskin ortdi. Masalan, energetika sohasida milliardlab dollarlik loyihalar to‘liq xorijiy xususiy kapital hisobidan amalga oshirilayotir. Iqtisodiy o‘sishning sifati tubdan o‘zgardi. Mamlakat xomashyo sotishdan, uni chuqur qayta ishlashga o‘tdi, bu esa YAIM tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratmoqda.

Shaharsozlik, infratuzilma va uy-joy qurilishi yiliga 10 – 15 foiz o‘sib



sement, metall va xizmatlar bozorini harakatga keltiryapti. 2017-yildan boshlangan fundamental islohotlar “yashirin” bo‘lib turgan iqtisodiy salohiyatni yuzaga chiqardi. Valyuta bozorining ochilishi hamda QQS stavkasining 20 foizdan 12 foizga tushirilishi biznesning “soya”dan chiqishiga va xususiy sektor faolligining keskin oshishiga olib keldi.

Energiya resurslari hamda g‘alla narxlarining bozor mexanizmlariga o‘tkazilishi Davlat byudjetidagi subsidiyalar yukini kamaytirib, sohaga xususiy investorlarni jalb qildi. Davlat aktivlari va banklarni xususiy sektorga sotish orqali kapitalning foydalanish samaradorligi ortdi.

O‘zbekiston – Markaziy Osiyodagi eng yirik va navqiron bozor. Endilikda an’anaviy sanoatdan tashqari, yuqori rentabelli yangi sektorlar paydo bo‘lmoqda. Birgina “IT Park” rezidentlari va xizmatlar eksporti bir necha yil ichida noldan yuzlab million dollarga yetdi. Fintex (Click, Payme, Uzum) va fin-xizmatlarning raqamlashishi savdo aylanmasini bir necha baravar tezlashtirdi. Vizasiz rejim hamda infratuzilmaning yaxshilanishi hisobiga turizm sektori YAIM o‘sishining asosiy drayverlaridan biriga aylandi.

Global logistikaning o‘zgarishi O‘zbekistonga geosiyosiy dividend keltirmoqda. Rossiya, Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi an’anaviy savdo yo‘llari o‘zgarishi fonida Markaziy Osiyo hamda O‘zbekiston orqali o‘tuvchi “O‘rta yo‘lak” va quruqlik yo‘nalishlariga talab bir necha baravar ortdi. Mamlakatning qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan chegaralarni ochishi hamda savdo to‘siqlarining bartaraf etilishi ichki mintaqaviy savdo aylanmasini bir necha milliard dollarga oshirdi.

Liberallashtirish siyosati va iqtisodiy model

Yurtimizda olib borilayotgan liberallashtirish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyaviy muhitni tubdan yaxshilash siyosati tashqi xatarlarni neytrallashtiribgina qolmay, ularni yangi iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirmoqda.

Masalan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi Ijroiya kengashining 2026-yilgi IV-modda doirasidagi maslahatlashuvlar yakunlari bo‘yicha e’lon qilgan hisoboti O‘zbekiston iqtisodiy modelining muvaffaqiyatini ochiq tasdiqladi. Geosiyosiy vaziyatlarga qaramay O‘zbekistonda YAIM o‘sishi 2025-yil yakunlari bo‘yicha 7,7 foizni tashkil etdi. Hukumat joriy yilda o‘sish sur’atlarini kamida 8 foiz darajasida ushlab turishni maqsad qilgan.

> ***E’tibor bering, ilgari o‘sish, asosan, Davlat byudjeti va tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2017 – 2026-yillarda xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi keskin ortdi. Masalan, energetika sohasida milliardlab dollarlik loyihalar to‘liq xorijiy xususiy kapital hisobidan amalga oshirilayotir. Iqtisodiy o‘sishning sifati tubdan o‘zgardi. Mamlakat xomashyo sotishdan, uni chuqur qayta ishlashga o‘tdi, bu esa YAIM tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratmoqda.***

XVJ 2025-yil aprelidan beri so‘m kursining moslashuvchanligi ortganini e’tirof etib, O‘zbekistonning amaldagi valyuta rejimini boshqariluvchan toifasidan erkin suzuvchi toifasiga o‘tkazdi. Bu milliy iqtisodiyotning tashqi “shok”larga chidamliligini oshiradi va oltin-valyuta zaxiralarini asossiz sarflanishdan himoya qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiy o‘sish manbaini davlat xarajatlaridan xususiy va xorijiy kapitalga muvaffaqiyatli o‘tkazdi. 2017 – 2025-yillar mobaynida mamlakatga jalb qilingan 150 mlrd. dollardan ziyod xorijiy mablag‘ning qariyb to‘rtdan uch qismi aynan so‘nggi besh yil hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuni ta’kidlash joizki, Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish tashabbusi Dubay, Singapur va Ostona kabi moliyaviy xablar bilan raqobatlasha oladigan xalqaro huquq tizimini yaratmoqda. Shu bilan birga bank kreditlaridan tashqari, Sukuk (islom obligatsiyalari) va muqobil investitsiya jamg‘armalari orqali kapital bozori diversifikatsiya qilinyapti.

O‘zbekistonning yer osti boyliklari trillionlab dollarga baholansa-da, mamlakat xomashyo eksporti tuzog‘idan chiqdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mashinasozlik, robototexnika, farmatsevtika hamda elektronika sohalarida zamonaviy klasterlar yaratilayotir. Sanoatlashuv fonida quyosh va shamol elektr stansiyalariga kiritilayotgan sarmoyalar energetik xavfsizlikni ta’minlayapti. Sun’iy intellekt hamda IT-parklarning rivojlanishi esa yaqin istiqbolda milliardlab qo‘shimcha qiymat yaratish manbaiga aylanishi, shubhasiz.

Investorlar uchun muhim signal

Prezidentimiz tomonidan xususiy sektor ulushini oshirish va davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar iqtisodiyotning o‘sishi hamda investorlar uchun muhim signaldir. Xususan, davlat korxonalarini xususiylashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmini kengaytirish hamda biznes uchun teng raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar xalqaro moliya institutlari tomonidan ijobiy baholanmoqda. Mazkur islohotlar iqtisodiyotda davlat emas, xususiy tashabbus asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishini anglatadi.

Xalqaro reyting agentliklari va moliya institutlari bahosi ham jarayon samarasini tasdiqlamoqda. XVJ O‘zbekistonda davlat qarzi nazorat ostidaligi, inflyatsiyani pasaytirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat natija berayotganini ta’kidladi. Jahon banki esa mamlakatda xususiy sarmoyani qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va raqobatni kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun muhim poydevor ekanini qayd etgan.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Osiyo taraqqiyot banki so‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni ijobiy baholab kelmoqda. Xususan, soliq tizimini soddalashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, bank sohasidagi islohotlar va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatyapti.

Yuqorida qayd etganimiz – bugungi geosiyosiy vaziyatga faqat tahdid deb emas, balki strategik pozitsiyani mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar darchasi sifatida qarash lozim. O‘zbekiston quruq raqamlar bosqichidan o‘tdi. Mamlakat oldida turgan bosh vazifa – jalb etilayotgan milliardlab dollarlik sarmoyalarni yuqori daromadli ish o‘rinlariga, raqobatbardosh sanoat mahsulotlari va aholi farovonligining real yuksalishiga aylantirish.

Shu ma’noda, shaffoflik, erkin suzuvchi valyuta kursi, qonun ustuvorligi va faol mintaqaviy integratsiya orqali mamlakatimiz shakllanayotgan yangi global iqtisodiy tartibotda markaziy va ajralmas o‘rinni egallashda davom etaveradi.

Shahlo IBRAGIMOVA,
O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi o‘rinbosari.

Yangilik

YIRIK LOYIHA SAMARASI



Jizzax viloyatida Zarafshon daryosi suvidan samarali foydalanish orqali hududda ichimlik suvi ta’minoti tizimini tubdan yaxshilashga qaratilgan yirik loyiha amalga oshirildi. Buning samarasi o‘laroq “Uchtepa” suv uzatish inshooti ishga tushirildi.

– Tumanimiz Jizzax shahri biqinida joylashgan bo‘lsa-da, yillar davomida ichimlik suvi ta’minoti eng og‘riqli masalalardan biri edi, – deydi xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashi deputati Ortiqboy Abdullayev. – Loyiha doirasida viloyat bo‘ylab 180 kilometr uzunlikdagi magistral ichimlik suvi tarmoqlari tortildi, zamon talablariga to‘liq javob beradigan 4 ta suv inshooti barpo etildi. Bu ishlar uchun 703 mlrd. so‘mlik byudjet mablag‘lari sarflandi.

“Uchtepa” suv uzatish inshooti tuman markazidagi Uchtepa, Yangiobod va Yangihayot mahallalarida istiqomat qiluvchi 17 mingdan ortiq aholini uzluksiz ichimlik suvi bilan ta’minlash imkonini berdi.

Shu kabi keng ko‘lamli ishlar natijasida Jizzax viloyatida markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 76,2 foizga yetkazildi. Bu minglab xonadonlar uchun yillar davomida kutilgan quvonch va yengillik, deganidir.

Tolibjon ERGASHEV
(“Xalq so‘zi”).

RAQOBAT BOR JOYDA YUKSALISH BO‘LADI

Bozorda raqobat qanchalik kuchli bo‘lsa, tadbirkor shunchalik ko‘proq izlanadi. Natijada mahsulot sifati yaxshilanadi, xizmat ko‘rsatish darajasi oshadi, narxlar bozor talablari asosida shakllanadi. Eng muhimi, iste’molchining tanlov imkoniyati kengayadi.

Bozor iqtisodiyoti

Raqobat bozordagi tadbirkorlar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashda muhim vosita. Ammo raqobat sog‘lom bo‘lsagina samara beradi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining bugungi tub o‘zgarishlari aynan shu tamoyil asosida takomillashib, barcha tarmoq va sohalarga tejamkor, samarador hamda unumdor texnologiyalarni jalb qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Navoiy viloyatida ham raqobat muhitini rivojlantirish masalasiga shu nuqtayi nazardan yondashilmoqda.

– Raqobatni himoya qilishning asosiy maqsadi faqat qonunbuzilish holatlarini aniqlashdan iborat emas, – deydi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Mamazarif Elmurodov. – Bunda, eng avvalo, bozorda barcha tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish, yangi ishtirokchilarning bozorga kirishiga imkoniyat berish va iste’molchining tanlov huquqini ta’minlash muhim.

Shu yilning 6 oyi davomida hududiy boshqarma tomonidan 20 dan ortiq tovarlar va moliya bozori tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida 11 turdagi mahsulot bozori to‘yinmagan deb baholanib, raqobatni rivojlantirish bo‘yicha takliflar tegishli organlarga kiritildi. Shuningdek, 3 ta subyekt ustun muzokara kuchiga ega deb e’tirof etilib, belgilangan tartibda reestrda qayd qilindi.

Ta’kidlash joiz, bu kabi tahlillar qaysi bozorlarda raqobat yetarli darajada emasligi, yangi tadbirkorlarning kirib kelishiga qanday to‘siqlar mavjudligi va ularni bartaraf etish uchun qanday choralar zarurligini aniqlash imkonini bermoqda.

Sog‘lom raqobat muhitini ta’minlashda tanlov va tender savdolari alohida o‘rin tutadi. 2025-2026-yillarda o‘tkazilgan tender savdolari tahlili davomida 1 243 ta raqobat qonunchiligi buzilishi holati aniqlangan. Jumladan, 2026-yilning 6 oyida boshlang‘ich narxi 47,4 mlrd. so‘mlik 483 ta tanlov savdosida qonunbuzilish holatlari qayd etildi.

– O‘rganishlar davomida ayrim savdolarda “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun talablari buzilishi alomatlari, jumladan, raqobatni cheklovchi talablar belgilash, affillanganlik va ishtirokchilar takliflarini noto‘g‘ri baholash holatlari aniqlandi, – deya fikrini davom ettiradi M. Elmurodov. – Misol uchun, Konimex tumani hokimligi buyurtmachiligida o‘tkazilgan 350 mln. so‘mdan ortiq qiymatdagi o‘nta tanlovning barchasida raqobat qonunchiligi talablari buzilganligi bois qonuniy choralar ko‘rildi.

Shu kabi holatlarga yo‘l qo‘yganligi uchun so‘nggi bir yarim yil davomidagi o‘rganishlar natijasida 70 ga yaqin mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, tegishli sud organlariga yuborildi.

Bozorda raqobatni sun’iy ravishda cheklash, kelishib olish yoki raqobatchilarga to‘siq yaratishga yo‘l qo‘yilmaydi. 2025-2026-yillarda 6 ta holatda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar, shuningdek, 5 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan insofsiz raqobat holatlari aniqlanib, tegishli choralar ko‘rildi. Masalan, Navoiy shahridagi “Navoi Haval” MCHJ avtosaloni tomonidan ijtimoiy tarmoqda joylashtirilgan videorolikda raqobatchi avtomobilning ayrim ko‘rsatkichlari bir tomonlama taqqoslangan holda iste’molchini uni xarid qilishdan qaytarishga qaratilgan harakatlar aniqlanib, insofsiz raqobat holati bo‘yicha chora ko‘rildi.

Yana bir holatda esa “Bright land” MCHJ va “Hightech pro Navoiy” MCHJ o‘rtasida tanlovda raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakatlar alomatlari aniqlanib, belgilangan tartibda ta’sir choralari qo‘llanildi.

Raqobat muhitini himoya qilishning samarasi faqat aniqlangan qonunbuzilishlar soni bilan emas, balki bozorda yaratilgan yangi imkoniyatlar bilan ham baholanadi. Davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qaror va hujjatlarning raqobat qonunchiligiga muvofiqligi ham shu maqsadda o‘rganilmoqda. 2025-yilda 19 681 ta hujjat xatlovdan o‘tkazilib, 46 ta qonunbuzilish holati aniqlangan bo‘lsa, joriy yilning 6 oyida esa 45 ta raqobatni cheklovchi hujjat aniqlanib, tegishli organlarga 18 ta taqdimnoma kiritildi.

– Bozorda raqobat qanchalik erkin bo‘lsa, uning ishtirokchilari ham shunchalik faollashadi. Biz uchun eng muhim vazifa – raqobatni cheklovchi sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish va halol faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish. Chunki raqobatning kuchayishi oxir-oqibat iste’molchi manfaatiga xizmat qiladi, – deya ta’kidladi M. Elmurodov.

Raqobat – bu shunchaki tadbirkorlar o‘rtasidagi kurash emas. U bozorni harakatga keltiradi, sifatni oshiradi, tanlovni kengaytiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Kuz dasturxoniga bahor ne’matlari



Chortoq tumanidagi Xayirli mahallasida istiqomat qilayotgan Farhodjon Mirzaahmedov o‘tgan yili tomorqasida bir sotixli issiqxona tashkil etib, gidroponika usulida qulupnay yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. Va bir yilning o‘zida 40 mln. so‘m daromad olishga erishdi.

– Bu qulupnaychilik bilan astoydil shug‘ullanishimga turtki bo‘ldi, – deydi F. Mirzaahmedov. – Issiqxonani kengaytirib 4,5 sotixga yetkazdim. Iyun oyida ekilgan ko‘chatlar hozir hosil bera boshladi. Har kuni o‘rtacha o‘n kilogrammdan ko‘proq qulupnay terib olinib, savdo nuqtalariga yetkazib beriladi. Hosildorlik kun sayin ortib borayotgani mavsum yakuniga qadar daromad yanada oshishini ko‘rsatib turibdi.

E’tiborlisi, qulupnay yetishtirish ishlariga uch nafar mavsumiy ishchi ham jalb etildi. Yana bir muhim jihat – xonadonda boshlangan tashabbus mahalla miqyosida ommalashdi. Omilkor dehqon qo‘shnilariga ham gidroponika usulida mahsulot yetishtirishni o‘rgatib, tomorqadan unumli foydalanishga ko‘maklashmoqda.

Akramjon SATTOROV
(“Xalq so‘zi”).

Klasterning zamonaviy korxonasi

“Oqsaroy tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati Qashqadaryo viloyatining turli hududlarida paxta yetishtirishdan tortib uni chuqur qayta ishlashgacha loyihalarni amalga oshirgan yirik klaster korxonalaridan biri hisoblanadi.



Ayni paytda “Oqsaroy tekstil” MCHJ tomonidan Qamashi tumanida sun’iy tola aralashmali kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yana bir zamonaviy korxona barpo etilmoqda. Qiymati 155 mlrd. so‘mlik ushbu loyiha doirasida yiliga 6 ming tonnadan ortiq kalava ip ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. Natijada hududdagi 450 nafar kishining bandligi ta’minlanadi.

Ta’kidlash joizki, ayni paytda Qashqadaryo viloyatida 459 ta to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularda 101 ming tonna kalava ip, 25,4 mln. metr kvadrat gazlama, 15,5 ming tonna trikotaj mato, 100 mln. donaga yaqin tayyor buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Tarmoqda yangi quvvatlarning ishga tushirilishi esa hududning to‘qimachilik sanoatidagi salohiyatini yanada oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahsulot turlarini kengaytirish imkonini beradi.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

Bir tashabbus – 80 ta ish o‘rni



Vobkent tumanidagi 3-texnikum binosining bir qismi anchadan buyon bo‘sh yotardi. Endi esa yaqin-yaqinga qadar huvullab turgan inshootdan odamlarning qadami arimay qoldi. Buni ushbu manzilda “Soft denim tekstiles” mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyat boshlagani bilan izohlash mumkin.

Biznes loyiha tashabbuskori Humoyun Soataliyev tuman hokimligi yordamida binoni ta’mirlab, zamonaviy tikuvchilik sexiga aylantirdi. Ishbilarmon tomonidan kiritilgan 1,5 mlrd. so‘m miqdoridagi sarmoya ishchilar uchun qulay mehnat sharoiti yaratish hamda xomashyo xaridiga yo‘naltirildi. Xorijdan zarur tikuv mashinalari sotib olish uchun 2 mlrd. so‘m atrofida mablag‘ sarflandi. Natijada 80 nafar xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ular uchun bir mahal bepul issiq ovqat, transport xizmati yo‘lga qo‘yildi.

Muhimi, shu paytga qadar o‘zlariga mos ish izlab yurgan uy bekalari hamda qizlar doimiy daromad manbaiga ega bo‘ldi. Ular tikayotgan korjoma va boshqa turdagi kiyim-kechaklar buyurtmachilarga ma’qul bo‘lyapti. Tadbirkor esa korxona faoliyatini kengaytirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, “Soft denim tekstiles” mahsulotlarini brend darajasiga ko‘tarish niyatida.

Istam IBROHIMOV
(“Xalq so‘zi”).

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Harbiy havo kuchlari Braziliyaning “Embraer” kompaniyasidan yangi avloddagi “C-390 Millennium” harbiy-transport samolyotlaridan birinchisini qabul qilib oldi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 28-avgust

XOMASHYODAN YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATGACHA

YOXUD YENGIL SANOATNING TARIXIY TRANSFORMATSIYASI

Bugungi kunda tub va keskin transformatsiyani boshdan kechirayotgan, aholi bandligi hamda eksport hajmini oshirishda iqtisodiy lokomotivga aylanayotgan eng muhim tarmoqlardan biri – bu yengil sanoat, ya’ni to‘qimachilik va tikuvchilik, charm-poyabzal sohasi.

Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar

Ayni paytda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari Yevropa, AQSh, Yaqin Sharq hamda Osiyo bozorlarini egallamoqda. Ammo bu marraga erishish oson bo‘lgani yo‘q, albatta.

Sir emaski, avvallari O‘zbekiston dunyodagi eng yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatlardan biri bo‘lishiga qaramay paxta tolasining 80 – 85 foizi arzon xomashyo sifatida xorijga sotilgan. Mamlakat ichida paxtani chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish tizimi deyarli mavjud emasdi. Har yili kuz oylarida o‘quvchilar, talabalar paxta terimiga majburiy jalb etilar, bu holat xalqaro maydonda mamlakat obro‘siga keskin putur yetkazardi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston paxtachilikda majburiy mehnatni tugatish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishladi. Natijada o‘zbek paxtasiga nisbatan xalqaro boykotlar bekor qilinib, mamlakat to‘qimachilik mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun darvozalar lang ochildi.

Bu islohotning ahamiyati faqat paxta terimi bilan cheklanmaydi. U mehnat munosabatlarida yangi tamoyilni qaror toptirdi. Eng muhimi, paxta chuqur qayta ishlanadigan tayyor mahsulot manbai sifatida qaralmoqda. Paxtadan kalava ip, mato, kiyim-kechak va tayyor brend mahsulotlari ishlab chiqarishga e’tibor kuchaydi.

Yangilanishlar shabadasi

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan paxtachilikda klaster tizimining joriy etilishi qishloq xo‘jaligi sohasida tashkiliy o‘zgarish bo‘libgina qolmay, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik qiyofasini tubdan o‘zgartirgan strategik burilish bo‘ldi.

Mazkur tizim ahamiyatini anglash uchun, avvalo, ilgarigi holatga nazar tashlash lozim. Fermer davlat buyurtmasi asosida paxta yetishtirar, biroq uning mashaqqatli mehnati munosib qadrlanmasdi. Paxta xarid narxlari bozor talablariga mos kelmas, oqibatda fermerlar yilni qarz bilan yakunlar edi. Yetishtirilgan tolaning katta qismi, ya’ni 80 foizdan ortig‘i arzon xomashyo sifatida xorijga sotilar, undan keladigan asosiy foyda va qo‘shimcha qiymatni esa xorijiy qayta ishlovchilar olardi. Yerlarni haydash, sug‘orish va chigit ekishda o‘tgan asr texnologiyalari qo‘llanilar, suv resurslari isrof bo‘lar, sug‘orishning zamonaviy tejamkor usullari deyarli yo‘q edi.



Klaster tizimining mohiyati juda oddiy hamda ayni paytda o‘ta samarali. Misol uchun, “Daladan rastagacha” yagona uzluksiz zanjiri yaratilishi – bitta tuzilmaning o‘zi paxtani yetishtiradi, uni qayta ishlaydi, kalava ip chiqaradi, mato to‘qiydi, kiyim-kechak tikadi hamda tayyor mahsulotni ichki va tashqi bozorga sotadi. Shu bilan birga, davlat paxta yetishtirishni moliyalashtirish hamda xarid qilish monopoliyasidan voz kechdi. Sohada xususiy investorlar – klasterlar ish boshladi. Ular yerga urug‘ qadashdan oldin millionlab dollarlik zamonaviy texnikalarni, tomchilatib sug‘orish tizimlarini hamda laboratoriyalarni olib keldi.

O‘zbekiston paxta tolasini chetga sotishni butkul to‘xtatdi. Mamlakatda yetishtirilgan paxta tolasi 100 foiz o‘z fabrikalarimizda qayta ishlanmoqda. Ilgari 1 kg. paxta tolasi 1,5-2 dollarga sotilgan bo‘lsa, bugun undan tayyorlangan kiyim-kechak shaklida 7 – 10 dollargacha qo‘shimcha qiymat yaratilayotir. Natijada to‘qimachilik eksporti 1 mlrd. dollardan 3,5 mlrd. dollargacha va undan ziyod darajaga ko‘tarildi. Klasterlar suv va yer resurslarining haqiqiy egasiga aylangach, lazerli yer tekislash, tomchilatib sug‘orish hamda raqamli texnologiyalarni ommalashtirdi. Bu esa hosildorlikni gektariga ilgarigi 20 – 22 sentnerdan 35 – 45 sentnergacha ko‘tarilishiga mustahkam poydevor yaratdi.

Qolaversa, klaster tizimida mehnatga bozor munosabatlari va yuqori ish haqi joriy etildi. Buning samarasi o‘laroq, majburiy hamda bolalar mehnatiga to‘liq chek qo‘yildi. Prezidentimizning so‘nggi qarori bilan paxta narxini birja orqali erkin belgilash, fermerlarga klasterlarni ixtiyoriy tanlash yoki fyuchers shartnomalarini tuzish huquqi berildi. Bu fermer hamda klaster o‘rtasida haqiqiy teng huquqli va manfaatli hamkorlikni ta’minlashga xizmat qilyapti. Qisqacha aytganda, paxtachilikda klaster tizimining joriy etilishi O‘zbekiston sanoatlashuvining mutlaqo yangi davrini boshlab berdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz arzon paxta yetkazib beruvchi agrar mamlakatdan, jahon to‘qimachilik bozorida o‘z o‘rniga ega qudratli to‘qimachilik xabiga aylandi.

Yengil sanoat – eng ko‘p ish o‘rni yaratadigan soha. Klasterlar va zamonaviy fabrikalarning ishga tushirilishi tufayli sohada 400 mingdan ortiq doimiy ish o‘rinlari yaratildi. Korxonalarda ishchilarning 70 foizdan ko‘pini xotin-qizlar va yoshlar tashkil etadi. Bu qishloq joylarda yashovchi ayollarning moliyaviy mustaqilligiga va oilalar farovonligiga beqiyos hissa qo‘shmoqda. Chekka viloyat hamda tumanlarda monomarkazlar va fabrikalar qurilib, hududlar iqtisodiyotiga jon kirdi.

Asosiysi, daladan boshlangan bu tarixiy o‘zgarishlar, bugun butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror gullab-yashnashiga xizmat qilayotir.

O‘zbekiston yengil sanoati mutlaqo yangi va zamonaviy qiyofaga ega bo‘lganini tasdiqlovchi dalillar ko‘p. E’tibor bering, ushbu yo‘nalishda eksport 4 barobar ortdi. Maqsad esa yanada baland: yaqin yillarda bu ko‘rsatkichni 5 mlrd. dollarga yetkazishdan iborat.

Darvoqe, Yevropa Ittifoqi tomonidan O‘zbekistonga “GSP+” preferensiyalar tizimi berildiki, natijada o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlari Yevropa bozorlariga bojxona to‘lovlarisiz kirib borayotir. Mamlakatimizdagi yuzlab korxonalar “OEKO-TEX”, “BSCI”, “Better Cotton”, “ISO” kabi xalqaro sifat sertifikatlarini qo‘lga kiritdi. Bugun O‘zbekiston fabrikalarida “Nike”, “Adidas”, “Puma”, “LC Waikiki”, “Zara” singari dunyoga mashhur brendlar buyurtmalari asosida kiyimlar tikilyapti. O‘zbek yengil sanoati mahsulotlari dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlariga yetkazib berilayotganining o‘zi katta muvaffaqiyat. Albatta, bu bilan cheklanib qolinmaydi, aksincha, olingan yuqori marrani birgalikda zabt etish yo‘lida izlanishda, harakatdamiz.

Haqiqiy sanoat inqilobi

O‘zbekiston iqtisodiyotida aholini ishli qilish bilan birga, eksport tushumlarini oshirish hamda hududlarni sanoatlashtirishdagi asosiy ustunlardan yana biri bu charm-poyabzal va tikuv-trikotaj sohalaridir.

Shu bois so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlar va yangi tashabbus hamda imtiyozlar evaziga ushbu ikki tarmoq oddiy xomashyo yetkazib berish bosqichidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi zamonaviy klasterlar darajasiga ko‘tarildi.

Yaqin o‘tmishda yurtimizda chorvachilik yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, yig‘ilgan terilarning katta qismi isrof bo‘lar yoki arzon narxda yarimtayyor shaklida chetga sotilar, mamlakatda sifatli poyabzal hamda charm-attorlik mahsulotlari tanqis bo‘lib, bozorlarni sifatsiz va arzon import poyabzallar egallagan edi. Poyabzal ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan taglik, yelim, furnitura kabi qo‘shimcha xomashyolar to‘liq xorijdan keltirilardi.

“O‘zcharmsanoat” uyushmasi tashkil etilishi va sohaga berilgan bojxona hamda soliq imtiyozlari haqiqiy sanoat inqilobini yasadi. Endilikda teri faqat qayta ishlangan, bo‘yalgan hamda tayyor charm holatida mahsulotga aylantirilmoqda. Arzon xomashyo eksportiga chek qo‘yildi.

Mamlakatimizda poyabzal tagliklari, kimyoviy vositalar, qoliplar va furnituralar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bu mahsulot tannarxini 20 – 30 foizga arzonlashtirdi. Andijon, Farg‘ona, Namangan va Samarqand viloyatlarida Italiya hamda Turkiyaning eng ilg‘or texnologiyalari bilan jihozlangan yirik fabrikalar ishga tushirildi. “Made in Uzbekistan” yorlig‘i ostidagi charm poyabzallar Markaziy Osiyo, MDH va Yevropa bozorlariga chiqmoqda. Shuningdek, sport hamda harbiy soha va sanoat uchun maxsus poyabzallar eksporti keskin oshdi.

Yaqingacha trikotaj mahsulotlari tikish texnologiyalari eskirgan, modellar va dizayn xalqaro trendlarga mos kelmas edi. Mahsulotlarning katta qismi faqat MDHning arzon bozorlariga yo‘naltirilardi. Prezidentimizning tegishli qarorlari bilan tikuv-trikotaj sohasi mazmunan yangilandi. Kalava ip ishlab chiqarishdan tortib, mato to‘qish, bo‘yash va tayyor kiyim tikishgacha bo‘lgan to‘liq “sanoat zanjiri” yaratildi. Bu tayyor mahsulot tannarxini tushirib, marjinal daromadni oshirdi.

Charm-poyabzal va tikuv-trikotaj sanoatidagi islohotlar jarayonida zamonaviy zavod hamda fabrikalar qurilishi milliy iqtisodiyotning mustaqilligi, “Made in Uzbekistan” brendining xalqaro e’tirofi va yuz minglab oilalarning farovonligini ta’minladi.

Mustaqilligimizning 35 yili davomida O‘zbekiston yengil sanoati agrar-xomashyo yetkazib beruvchi maqomidan – yuqori texnologik va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi industrial gigant darajasiga ko‘tarildi. Bir vaqtlar arzon paxtasi bilan dunyoga tanilgan O‘zbekiston, bugun yuqori sifatli, zamonaviy hamda xaridorgir yengil sanoat mahsulotlari bilan jahon bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Bu mustaqil taraqqiyot yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning amaldagi yorqin ifodasidir.

Baxtiyor NASIMOV,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ISLOOTLAR QUDRATI – MAALLADA

E’tibor berganmisiz, inson qaysi kasb egasi yo mansabda bo‘lmasin, kech kirgach uyiga shoshadi. O‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq yo istiqomat qilayotgan mahalla ko‘chasiga kirganda ko‘ngli xotirjam tortadi, oila bag‘rida esa charchoqlari tumandek tarqab ketadi. Nevarasining bobojon, buvijon sizga taklifnoma berib ketishdi, degan xushxabari esa uni behad quvontiradi.

Mulohaza

Demak, u hurmat rutbasida turgan inson, islohotlar markaziga aylangan mahallaning e’zozga loyiq odami. O‘zbekning nimasi ko‘p – tadbiri, marosimlari. O‘g‘il uylantiradimi, qiz uzatadimi, o‘tganlarni yodga oladimi – mahalla-ko‘yga osh beradi. Odamlarning boshini qovushtiradigan maskan – mahallaning ma’naviy kuchi xuddi shu nuqtada yorqin ko‘rinadi.

Davlatimiz rahbari kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham mahallani eng asosiy kuch sifatida ta’kidlagani bejiz emas.

Qo‘limga qalam olib yozishga tushdim. Talabalar uchun o‘qiydigan navbatdagi leksiyalarimga yangi mazmun bag‘ishlashga kirishdim. Muqaddima shunday boshlandi: “Ming yildirki, yurtimizda mahalla mehru oqibat, saxovatu muruvvat qalqoni, yurakdagi orzular ro‘yobi sifatida namoyon bo‘lib kelmoqdaki, rostini aytganda bugun ham shunday.



Yig‘ilishda davlatimiz rahbari ehtiyojmand aholi yil boshidagi 2 mln. 200 ming nafar emas, balki hozirgi paytda 1,5 mln. kishini tashkil etayotganini, ishni to‘g‘ri tashkil qilgan 49 ta tuman va 3 429 ta mahalla ishsizlik hamda kambag‘allikdan xoli hududga aylanganini ta’kidladi. Shuningdek, barcha hududlarga bir xil vakolat, resurs va imkoniyat berilgan bo‘lsa-da, ayrim joylarda ajratilgan mablaqqa nisbatan samaradorlik juda pastligi ham aytib o‘tildi. Nega shunday, buning asosiy sabablari atroflicha tahlil qilindi”.

Qani ayting-chi, jamiyatimizning eng muhim muammosi bo‘lgan kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq bugungi davlat siyosatini talaba bilishi, anglashi kerakmi, yo‘qmi?

Albatta, zarur. Chunki u ham darsdan so‘ng uyga boradi, mahallaning faol a’zosiga aylanadi. Bugun universitet partasida leksiya tinglayotgan yigit-qiz ertaga qanday mavqeni egallaydi, u qay darajada mas’uliyatli va zakovatli insonga aylanadi, bu bir jihatdan muallimning leksiyasi va undagi mazmun-mohiyatga bog‘liq. Ana shu sababli “Xalq so‘zi” gazetasida yig‘ilish yoritilgan materialni qayta va qayta o‘qidim. Ziyoli sifatidagina emas, balki bu ulug‘vor jarayonga o‘zim qanday hissa qo‘sha olaman, degan niyat ham ko‘nglimdan o‘tdi.

Yana gazetaga ko‘z tashlayman: “Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 50 yillik tajribaga ega Xitoy tajribasini o‘rganish kambag‘allikni qisqartirish, boqimandalikka barham berishda qo‘l kelishi tayin. Shu tamoyilga ko‘ra va zamon talabidan kelib chiqqan holda quyi tizimga doimiy ravishda aniq ko‘rsatmalar berib borish zarur. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, o‘tgan uch yilda mahallalardagi tadbirkorlik loyihalariga 314 trln. so‘m resurs ajratilgan, ammo kreditlarning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri barcha tumanda birdek emas”.

Birorta masala yo kamchilik davlatimiz rahbari e’tiboridan chetda qolmadi, barchasi chuqur tahlil etildi. Mahalladagi hokim yordamchisi va mahalla bankiri “loyihaviy yondashuv” asosida ishlashi va ularga mahalliy rahbarlar eng yaqin ko‘makchi bo‘lishi ta’kidlandi. Kelgusida tuman shtablari mahalliy sharoit va loyihalarning samaradorligidan kelib chiqib, moliyalashtirish masalalarini mustaqil hal etadi va tumanlar ixtiyoriga jami 3 trln. 200 mlrd. so‘m resurs yo‘naltiriladi hamda mablag‘larning aniq natija berishi nazoratda bo‘ladi.

Auditoriyada ana shu gaplarni aytgach, leksiyani bir muddat to‘xtataman va talabalardan so‘rayman: “Kim mana shu yig‘ilishni ko‘rdi yo gazetada o‘qidi?”

Javob qanday bo‘lishidan qat’i nazar, yana bir bor ta’kidlayman. Davlatimiz rahbarining bu galgi yig‘ilishi mahalladagi muammolarga barham beradi va farovonlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Endi bahonaga aslo o‘rin yo‘q. Va yana endi biznes ahli yangi rag‘bat sohibiga aylanadi.

Deylik, yetakchi tadbirkor 10 ta oila bilan kooperatsiya qilsa, 500 mln. so‘mgacha, 100 ta oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, 5 mlrd. so‘mgacha garovsiz kredit olishi mumkin. Kambag‘allik jamg‘armasidagi 240 mlrd. so‘m, Bandlik jamg‘armasidagi 100 mlrd. so‘m va uchta “daftar”dagi 760 mlrd. so‘m mablag‘ tuman shtablari ixtiyoriga beriladi. Endi tuman shtabi subsidiya yoki foizsiz ssuda berish masalasini ham mustaqil hal qiladi. Tadbirkorlik kompaniyasining kompensatsiyalar uchun yil yakuniga qadar nazarda tutilgan 300 mlrd. so‘mlik qoldig‘i ham shtablar orqali ajratiladi.

Yana bir muhim jihat. Kredit, subsidiya va kompensatsiya shartlarini farmon va qarorlar bilan belgilash amaliyotidan voz kechiladi. Buni kelgusida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank hududlar salohiyatidan kelib chiqib, moliyalashtirish mexanizmlarini har chorakda yangilab boradi. Shuningdek, o‘quv markazi tashkil etib, unga xorijdan mutaxassislar jalb qilinadi hamda hokim yordamchilari loyihabay ishlashga o‘qitiladi.

Yil yakunida har bir tumandan eng yaxshi ikki nafar hokim yordamchisi Xitoy, Yaponiya va Turkiyaga malaka oshirishga yuboriladi. Eng namunali hokim yordamchilariga alohida malaka darajasi berilib, 50 foizgacha ustama to‘lanadi. Mahalla bankirlari ham xuddi shu tartibda rag‘batga ega bo‘lishadi.

Yuqorida qayd etilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan aytilgan gaplar siz yashayotgan mahallada qanday aks sado beryapti? Oila a’zolaringiz o‘zgarishlarni his etdimi? Kelgusi uchrashuvda ana shular haqida gaplashamiz, deyman talabalarimga. Zero, ular ham ertangi kunimiz egalari sifatida yosh bo‘lsa-da, zimmalariga katta mas’uliyat yuklanayotganini, mahalla islohotlarning qudratli kuchiga aylanayotganini bugundanoq his etishlari kerak.

Muhriddin SODIRJONOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

KASABA uyushmalarida

Jamoa shartnomalari ijrosi tahlili



O‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tomonidan Andijon viloyatida tarmoq kasaba uyushmasining tuman va shahar kengashlari raislari ishtirokida seminar o‘tkazildi.

Unda jamoa shartnomasi bo‘yicha har bir xodim uchun ijtimoiy xarajatlar ko‘rsatkichini hisoblash metodologiyasi batafsil o‘rganildi va raislarga amaliy tushuntirishlar berildi.

Tadbirdan so‘ng tarmoq kasaba uyushmasi Respublika kengashi mutaxassislari viloyat tumanlariga chiqib, tizimdagi byudjet tashkilotlari, fermer xo‘jaliklari va boshqa korxonalardagi jamoa shartnomalari ijrosini o‘rgandi.

Fermerlarga amaliy yordam

O‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan fermer xo‘jaliklarida jamoa shartnomalari orqali mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat huquqlarini himoyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tushuntirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Asaka tumanidagi fermer xo‘jaliklarining hududiy boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitalari raislari bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Muloqot davomida fermer xo‘jaliklarida tuzilgan jamoa shartnomalarining holati, ularning bajarilishi yuzasidan hujjatlar va har bir xodim bo‘yicha ijtimoiy xarajatlar ko‘rsatkichini hisoblash metodologiyasi o‘rganildi. Shuningdek, barcha fermer xo‘jaligi kasaba uyushmasi raisi va faollari bilan suhbat o‘tkazilib, jamoa shartnomasining xodimlar manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati hamda kasaba uyushmasining amaliy imkoniyatlari bo‘yicha batafsil tushuntirishlar berildi.

“Foziljon orzusi” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi faoliyati bilan tanishuv jarayonida qator yo‘nalishlarda amaliy yordamlar ko‘rsatildi. Bu kabi uchrashuv va amaliy yordam ko‘rsatish tadbirlari respublikamizning boshqa hududlarida ham davom ettirilmoqda.

Faollar malaka oshirishdi



O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Malaka oshirish institutida Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang‘ich kasaba uyushma tashkilotlarining xotin-qizlar komissiyasi raislari o‘quvi o‘tkazildi.

O‘quvda tarmoq kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang‘ich tashkilotlarning xotin-qizlar komissiyasi raislari malaka oshirdi.

Haftalik o‘quv mashg‘ulotlari yakunida mavzular bo‘yicha test sinovlari o‘tkazilib, tinglovchilarga maxsus sertifikat berildi.

“Xalq so‘zi”.

Joriy yilning noyabr oyida Samarqand shahrida Butunjahon vaqf forumi o‘tkaziladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 02.20 Topshirildi – 02.25 1 2 3 4 5 6